

**SAYD MUHAMMED XUDIYARXON "OQ UYLIK" DAVRIDA
ORENBURGNI TARK ETISHI: ERKINLIKKA INTILGAN MA'NAVIY
MARDLIK NAMUNASI.**

**SAID MUHAMMAD KHUDOYARKHAN'S DEPARTURE FROM
ORENBURG DURING THE 'WHITE PALACE' PERIOD: AN EXAMPLE
OF SPIRITUAL COURAGE IN THE PURSUIT OF FREEDOM**

**ОТЪЕЗД САИДА МУХАММЕДА ХУДОЯР-ХАНА ИЗ ОРЕНБУРГА В
ПЕРИОД "БЕЛОГО ДВОРЦА": ПРИМЕР ДУХОВНОГО МУЖЕСТВА
В СТРЕМЛЕНИИ К СВОБОДЕ**

Dosmaganbetov S., Yusupov. O.

Ajiniyoz nomidagi NDPI

"Tarix o'qitish metodikasi" kafedra katta o'qituvchisi

Tel: +998 91 389 41 77

Dosmaganbetov@mail.ru

Annotatsiya.

Maqolada tarixiy-ilmiy adabiyotlar, arxiv manbalari va xalq og'zaki ijodi namunasi-rivoyatlar asosida Sayd Muhammed Xudiyarxonning "oq uyli" davrida Orenburg surgunidan qochishi ozodlikka tashlagan qadam ekanligiga, ma'naviy qullikdan erkinlikka intilishlari haqida yangicha qarashlar berilgan.

Kalit so'zlar.

Sayd Muhammed Xudiyarxon obrazi, Orenburgdagi "oq uylik hurmatli tutqun" xon, Orenburglik yirik boy B.Jangeldin, Ustyurt platosi, Eset botir oqsoqol Ko'tibar o'g'li, katta o'g'li Ernazar, "Quy" Amudaryo frontiri, "Talliq" ariq, Azbergen biy Mung'aytmash o'g'li, Marie de Ujfalvy-Bourdon va boshqalar.

Аннотация.

В статье на основе историко-научной литературы, архивных источников и образцов устного народного творчества - преданий представлены новые взгляды на то, что побег Саид Мухаммед Худийархана из оренбургской ссылки в период "белого дома" был шагом к свободе, его стремление к свободе от духовного рабства.

Ключевые слова.

Образ Саид Мухаммуд Худийархана, хан в Оренбурге "почетный пленник белого дома", крупный оренбургский богач Б.Жангельдин, плато Устюрт, Есет батыр сын аксакала Кутибар, старший сын Ернazar, Нижний Амударьинский фронтир, русло "Таллык" реки Амударьи, Азберген бий сын Мунгайтмас, Мари де Уйфальви-Бурдон и другие.

Abstract.


Based on historical and scientific literature, archival sources, and examples of oral folk art - legends, the article presents new perspectives on Said Muhammad Khudayar Khan's escape from exile in Orenburg during the "white house" period. It argues that this escape was not only a step towards freedom but also a manifestation of his desire to liberate himself from spiritual bondage.

Key words.

The image of Sayd Muhammed Khudiyarkhan, the "honored prisoner of the 'white house'" khan in Orenburg; the wealthy Orenburg magnate B.Zhangeldin; the Ustyurt plateau; Eset batyr, son of the elder Kutibar; the eldest son Ernazar; the "Lower" Amu Darya frontier; the "Tallyk" channel of the Amu Darya; Azbergen biy, son of Mungaitmas; Marie de Ujfalvy-Bourdon and others.

bo'lgan Xudiyar tarixiga oid ko'plab arxiv ish qog'ozlarini ko'rish nasib etdi. Jasorat timsolida 1877-yil 12-noyabrda sobiq hukmdor Xudo-yor so'nggi sodiq sheriklari bilan oldinnan puxta o'ylab, "soatlarni solishtirish" shartiga bo'ysunib va tavakkal qilib surgundan qochishni tashkil qiladi [3.]. U insonning Orenburgdagi surgunlik "oq uy"dan yashirinch qochib ketishiga kimlar va qanday vaziyatlar motivatsiya bergan?. Xudiyarxon Orenburgdan qochib bepoyon Ustyurt kengligi orqali, Janubiy Orolbo'yi va quyi Amudaryo deltasi manzilgohlarda yashoshi qozoq va qoraqalpoq biylari boshqargan ovullarda vaqtincha boshpana topadi.

Tarixiy angishvona, maxfiy tark etish: Qo'qon xoni hukmdor Sayd Muhammed Xudiyarxon "oq uy"li surgunlik paytida Orenburgdan qochib ketishiga kimlar yordam bergan ?. Hukmdor xon obrazini kimlar yozgan?. 1876-1877-yillarda mashhur fransuz tadqiqotchisi va sayyohi Mari Uyfalvi-Burdon (1842-1904) umr yo'ldoshi, mashhur franko-venger etnografi Sharl Ejen Uyfalvi de Mezekevezd (1842-1904) bilan birga 1876-1878-yillarda Sibir va Markaziy Osiyo bo'ylab katta fransuz ekspeditsiyasi davomida yozilgan "Sayohat daftari" sahifalariga quyidagilarni yozib qoldirgan edi. Mari Uyfalvi-Burdon fikricha: "Xudi-yarxon "tiranning"ning Orenburgdan qochish sabablari: o'zining avvalgi xonlikni boshqarganini o'ylab, siyosiy hokimiyatini qayta tiklashga harakat qilgan [4.].



Mashhur franko-venger etnografi Sharl Ejen Uyfalvi de Mezekevezd (1842–1904) va umr yo'ldoshi, taniqli fransuz tadqiqotchisi va traveler Mari Uyfalvi-Burdon (1842–1904) fotosurati.

File: Ujfalvy Károly és Ujfalvy Károlyné, Vasárnapi Ujság, 1880.jpg

Tarixnoma: Sayd Muhammed Xudiyarxon haqidagi ma'lumotlar D.Dolgorukov, N.Terentev, M.Divaev, A.Z.Validov tomonidan tarixiy ilmiy asarlarda ko'plab yozilgan [5.]. Xonning hukmronlik obrazi har zamonda, har xil mazmunda ta'riflangan. Masalan tarixchi t.f.d. R.N. Nabiyev XIX-asr oxiri-XX-asr boshidagi davriy nashrlarda Xuda+yar shaxsining ijobiy baholanganiga e'tibor qaratadi. "Niva" jurnali Xuda yarxon haqida: - "Hozirgi vaqtda O'rta Osiyodagi "eng

ajoyib" hukmdorlarning biri sifatida..." deb yozgan [6.]. U inson Rossiya imperiyasi qo'l ostida "hurmatli qul-xon, siyosiy jihatdan xo'rlangan" bo'lishni istamadi. Xon boshiga tushgan og'ir qismat, orzu-armonlar, ozodlik yo'lida harakat qilgan kurashlari tarixi yangicha nuqtai nazardan o'rganilishi shart. Markaziy Osiyo, O'rta Osiyo xalqlari boshidan kechirgan o'tmish tarixiy-taqdiriy sahifalarda, ayniqsa, Qo'qon xonligi tarixining tarixiy geografiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, etno-madaniyat namunalari, musulmon me'morchiligi uslubida bunyod etilgan ko'p sonli inshootlar hamda qo'shni mamlakatlar bilan diplomatik, ichki va tashqi savdo-sotiq munosabatlarida o'chmas chuqur iz qoldirgan Qo'qon hukmdori Sayd Muhammed Xuda yarxon (1835-1856)ning hayot yo'llari, kelajak avlodga yozdirib qoldirgan bebaho meroslari haqida bizlar nimalarni bilamiz ?!.

Mavzuning dolzarbligi: XIX asrning 70-80-yillarida Markaziy Osiyo intellektual elitalari kontekstida Qo'qon xoni, tarixiy shaxs Xudo-yorxonning hayoti, xonlikning qurilish tarixida qoldirgan an'anaviy me'moriy binolari, tangalarni tayyorlashda yarim mahsulotni ishlab chiqarish va tanga zarb qilish merosi, elining obod, farovon va xonlik hududida tinchlik hukm surgan vaqtlarida kelajakka meros bog'u-bo'stonga aylantirgani haqida qo'lyozmalarda, tarixiy kitoblarda va badiiy adabiyotlarda, folklor-og'zaki tarixda o'z aksini topgan.



TANGA: / SAYD MUXAMMAD XUDAYAR/

U insonning haqiqiy obrazi, tarixga to'la taqdiri, jamiyatda tutgan o'rni va xizmatlari haqida bir necha ilmiy tadqiqot ishlar yozildi, lekin u insonning Orenburg o'lkasida o'tgan ikki yillik "oq uyli hurmatli surgunlik" davrida, qanday sharoitda kun kechirgani arxiv manbalar orqali maxsus va tizimli o'rganilmay qolgan edi. Xudi-yarxonning hukmdor sifatidagi taqdiri yangi tarixda yangicha nuqtayi nazardan o'rganilishi, og'zaki va yozma tarixiy manbalardan aniqlanishi, ma'naviy-ma'rifiylik va tarixiylik jihatidan xolis baholanishi darkor. U inson sakral raqam - "O'n olti" yoshidan boshlab karyeraga erishish manfaatida davlat darajasidagi boshqaruv ishlariga aralashgan, chorak asr mobaynida el-yurtni boshqarib, siyosiy-tarixiy kurashlarni, "siyosiy angishvona"larni, hayotning achchiq va shirin peshona terli saboqlarini boshidan kechiradi. Sayd Muhammed Xuda+yarxon 1875-yil 12-avgustida Orenburg shahriga "Oq uy"ga safarga (surgunga) jo'natilgan. U Ural (Yoyiq) daryosi bo'ylarida ikki yilga yaqin "Vatan gadoyi" bo'lib yashadi va musulmonchilikning besh farzlaridan biri Ka'baga ziyoratni bahona va sabab qilib, eng yaqin do'st-yoronlari bilan maxfiy tarzda o'ylab, surgundan qochishga qattiq

tayyorlanadi. Buning uchun ular, olis Orenburg o'lkasidan boshlaganda dastlab, "Ulug' dasht" - Aranglar qirlari - Ustyurt tekisligi - Quyi Amudaryo - Qoraqum cho'li - Turkman (Shovdir, Taka urug'lari) yerlari - Hirotgacha cho'zilgan uzoq va xatarli yo'llarning yo'lboshlovchilari va qo'riqchilari kimlar ekanligini aniqlaydilar ?!. Orenburglik yirik boy B.Jangeldin qurol-yarog' sotish bilan shug'ullanib Xudiyar bilan oradan qil o'tmas chinakam do'st bo'lib, xon bor boyligidan kumush quyma bo'laklarini sovg'a qilgan. "Ulug' Dala" Ustyurt kengligi katta oqsoqoli Eset Ko'tibar o'g'li manfaatlarini va ko'ngil xushini topgan. Esetning katta o'g'li Ernazar uyezdlik izquvar-tergovchilarga aytgan so'zidan parcha: -"Xuda yar xon Eset botirga zarli to'n yopgan, tajribali yo'l boshlovchilarni kuch-ulov ot, tuya bilan ta'minlab bergan."

Arxiv manbalari: 1878-yil 26-mart kungi tergov jarayonining stenografik hujjatlarida: "o'zlarini amnistiya etib" maxfiy tarzda qochgan "xonning" yor-do'stlarining bir guruhi, quyi Amudaryo frontiri "Talliq" daryo bo'yidagi Azbergen biy Mung'aytpas o'g'lining qishlov manzil-qo'rg'oniga kelgan. Amudaryo bo'limi boshlig'ining bergan ma'lumotida: "Xudiyar xan poymon" degan qisqa maxfiy xabar tezkor harbiy telegraf aloqa yo'li orqali Orenburg guberniyasi poytaxti Orenburg shahriga yuborilgan [7.].

Tarixiy angishvonalar: Orenburg "oq uylik" surgunidan qutulish maqsadida puxta o'ylanib, avval oila a'zolarining bir guruhini yashirinch qochirib yuborib, keyinchalik o'zi va qo'shdoshlari bilan boshqa aylanma maxfiy yo'l orqali qochib ketadi. Xudiyarxon ishonchiga kirgan va yo'ldosh bo'lgan so'nggi kichik guruh a'zolari qoraqalpoq-qipchoq biy-botirlari yordamida Amudaryodan eshakli qayiqlarda, chap qirg'oqqa o'tkazilib turkman-shovdir oqsoqoli va serdarlariga "omonat xon"ni olib keladi. Shovdirlar Qizilqumning ichi bilan turkman-taka dashtini yaylov qilgan serdarlarga "omonat"ni topshiradi.

Turkman-taka dashti orqali qiyin va xavfli uzoq yo'llardan otliq, tuyali eson-omon o'tib xon va uning kichik guruhi Hirot shahriga yetib keladi... [8.]. Qo'qon hukmdori sakral "to'qqiz" yil davomida siyosiy angishvonalariga duch kelib, oxir-oqibat tug'ilgan yurtiga bo'lgan sog'inch to'la orzu-armonlari bilan Hirot shahrida mangu uyquga ketgan edi [9.].

Xulosa: Sayd Muhammed Xuda+yar Bahodirxonning mardlikka to'la siymosi, orzu-armonlar bilan erkinlikni orzu qilishi, o'z hayoti davomida ko'zlagan maqsadlari uchun fidokorona, mardlarcha kurashib oldinga intilishi, to'g'ri yechim topib safdoshlari yordamida "hurmatli asirlik"dan ozodlikka chiqishi, mustaqil davrga erishishi, qullik va xo'rlikdek hayotni tark etishga qaror qilishi bu har bir insonning o'zligini anglashiga, ma'naviy jasoratga qadam qo'yadigan kelajak avlodlar uchun ibratli yodnoma bo'lib mangu esda qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO'YXATI. (REFERENCES)

1. Абдуллаев У.С. Межэтнические процессы в Ферганской долине (XIX – начало XX века): Автореф. д-ра ист. наук. – Ташкент, 2006.

Абдуллаев У.С. Отражение межэтнических связей в материальной культуре народов Ферганской долины в конце XIX – нач. XX века // O‘zbekiston tarixi. -Тошкент. -1999 - № 4.

Abdullayev U.S. Farg‘ona vodiysida etnolingvistik jarayonlar // Markaziy Osiyoda an‘anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar. - Toshkent. 2005 - 2-qism //.

2. BERDAQ. Tanlangan asarlari. QQ MB. Nukus. 1950.

3. Архив Оренбурга. / ГААОО Фонд. 6. Опись 17. Дело 224. Дело 227. Дело 229. Дело 231. «Побег Худа-йар хана»/.

4. Marie Ujfalvy-Bourdon, De Paris à Samarkand, le Ferghanah, le Kouldja et la Sibérie occidentale. Impressions de voyage d’une parisienne // Paris, 1880, p. 57-59.

5. Диваев А. Последние дни Худо-йархана // Туркестанские ведомости. – 1916. – № 20, 26 января / 8 февраля. – с. 120–134.

6. Набиев Р. Н. Из истории Кокандского ханства (феодалное хозяйство Худояр-хана). Ташкент: Фан, 1973. 388 с.

7. ГААОО. Фонд. 6. Опись-17. Дело: 224/

8. Константин. А. Абдирахманов. «Побег из ОРЕНБУРГА Кокандского хана Худияра в 1877 году». // Вестник Вол ГУ. Серия 4, История. Регионоведение. Международные отношения. 2025. Т. 30. № 1.

9. O.Yusupov. "Xudoyorxonning qochishi va sheriklari". [www /facebook com https m facebook com home php /532472164255630](https://www.facebook.com/home.php/532472164255630). 24.12.2023.